

7. Xatamov, A., & Shaptakov, E. (2023). Qishloq xo'jaligi hayvonlarining etologiyasi. O'quv qo'llanma. Usmon Nosir Media. Samarqand 2023. 187 B.
8. Zokirov M., Valiyev U., Shirinboyev Sh. Qorako'lchilik. Toshkent, "O'qituvchi", 1983, 301 bet
9. <https://kun.uz/uz/91711393>
10. <https://uzhurriyat.uz/2016/03/21/iqlim-o-zgarishlari-va-oqibatlar/>
11. <https://www.google.com/amp/s/www.amerikaovozi.com/amp/climate-change-review/6291085.html>
12. <https://pastres.files.wordpress.com/2021/09/infosheets-1ru.pdf>

UDK: 636.32/38.082.11.

BOBOTOG' SURI XO'JALIGIDAGI QORAKO'L QO'YLARINING BIOLOGIK VA MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARI

U.X.Aripov-q.x.f.d., professor,

G.T.Axrrova-tayanch doktorant,

M.M.Urinboyeva-tayanch doktorant,

X.N.Imomov-tayanch doktorant

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada ko'k va sur rangli qorako'l qo'ylarining biologik va mahsuldorlik xususiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar, mahsuldorlikni oshirishning genetik imkoniyatlari haqida fikrlar bayon ettirilgan.

Kalit so'zlar: Qorako'l qo'y zoti, gomo va geterogen juftlash, rang va rang barangliklar, iqlim, harorat, mahsuldorlik, genetik imkoniyat.

Abstract. The article describes the factors affecting the biological and productivity characteristics of blue and gray Karakul sheep, and the genetic possibilities of increasing productivity.

Key words: Karakol sheep breed, homogeneous and heterogeneous mating, color and color variations, climate, temperature, productivity, genetic potential

Kirish. Qorako'l qo'y zoti dunyodagi eng mashhur qo'y zotlaridan biridir. U Yevropa, Osiyo va Amerikaning 50 dan ortiq mamlakatlarida urchitiladi. Qorako'l qo'ylarining keng tarqalgan hududi, turli iqlim, saqlash, asrash va ozuqa sharoitlari, seleksiya va naslchilik ishlarining darajasi va yo'nalishlari – bularning barchasi ularning biologik va mahsuldorlik xususiyatlariga ta'sir qilgan.

O'rta Osiyo va Qozog'istonning tabiiy omillari ichida iqlim omili eng kuchli hisoblanadi. Iqlim tushunchasiga kiruvchi quyosh radiatsiyasi, atmosfera bosimi, havo va tuproq harorati, yog'ingarchilik va boshqalar bu iqlimda yashovchi qo'ylarga nafaqat bevosita, balki asosan tuproq, o'simlik, suv rejimi orqali ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston iqlimi ko'p jihatdan o'ziga xos o'simlik shakllarining rivojlanishi va o'ziga xos tuproqlarning shakllanishini belgilaydi. Yuqori harorat, quruqlik, haroratning keskin o'zgarishi va shamolning birgalikdagi ta'siri yer va havo namligining sifatiga keskin ta'sir qiladi va hayotning ushbu tashqi omilini minimallashtiradi. Shuning uchun qorako'l qo'ylari tabiiy sharoitda doimiy ravishda iqlim omillarining ta'siriga duchor bo'ladi.

Organizmning atrof-muhitga bo'lgan reaksiyasi va sun'iy tanlash zot ichida har xil turlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Qorako'l zotida quyidagi konstitutsiya turlari ajralib turadi - mustahkam, qo'pol, nozik. Shu bilan birga, ayrim konstitutsiya tipidagi qo'zilar va qo'ylar bir qator biologik va iqtisodiy jihatdan qimmatli belgilari bilan bir-biridan farq qiladi.

Qorako‘l qo‘y zotlari ekstereri (gabitus) va tirik vazni bo‘yicha qo‘pol, nozik va mustahkam konstitutsiyaga, mustahkam suyaklarga, kuchli mushaklarga, harakatchanlik va chidamlilikka ega. Qorako‘l qo‘ylari tabiiy va sun‘iy tanlash natijasida nihoyatda yuqori moslashuvchanlikka ega bo‘ladi. Qo‘ylar yurish paytida yuqori moslashuvchanlikka ega, iste‘mol qilinadigan suvning sho‘rlanishi va havo haroratining keskin o‘zgarishiga toqat qiladi. Adaptiv xususiyatlarning ishlab chiqilishi nafas olish turini o‘zgartirish, kunlik ventilyatsiyani oshirish, eritrotsitlar tarkibi va qondagi quruq moddalarni kamaytirish orqali erishilganligi alohida ahamiyatga ega. Biroq, ekstremal sharoitlarning hayvonlar uchun chegarasi mavjud bo‘lib, hayoti uchun halokatli bo‘lishi mumkin.

Qorako‘l qo‘y zotlari mahsuldorlik xususiyatiga ko‘ra teri-sut yo‘nalishidagi zotlarga, morfologik belgilariga ko‘ra, birinchi navbatda, dumining shakli va o‘lchamiga ko‘ra yog‘- dumbali qo‘ylarga mansub.

Qorako‘l qo‘ylari boshqa qo‘y zotlariga qaraganda kech yetiluvchan qo‘y zotlariga kiradi. Ularning birinchi juftlashishi 1,5 yoshiga to‘g‘ri keladi, lekin 6-7 oyligida aksariyat qo‘zilarning jinsiy voyaga yetganligi yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi.

Turli rang va rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylari moslashuvchanlik qobiliyati, pushtdorligi, jun mahsuldorligi, noqulay sharoitlarda boqish va semizligini saqlash qobiliyati bilan farqlanadi.

Qorako‘l qo‘ylari tabiatan juda murakkab va serqirradir. Murakkabligi mahsuldorlik sifatlarini belgilovchi biologik belgilarning xilma-xilligi, belgilarning organizmga bog‘lanish darajasi va organizmning atrof-muhit omillari bilan turli o‘zaro ta‘siri bilan bog‘liq ekanligidadir. Shuning uchun qorako‘l qo‘ylarining mahsuldorlik sifatlarini oshirish bo‘yicha naslchilik ishlarini olib borishda mahsuldorlik belgilarining shakllanishini, ularning muayyan ekologik va iqtisodiy sharoitlarda namoyon bo‘lishini belgilovchi barcha omillarni hisobga olish kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qorako‘l qo‘ylarining ko‘p qirrali mahsuldorligi, yuqori biologik, xo‘jalik va tovar belgilari O‘zbekiston cho‘l qorako‘lchiligini qishloq xo‘jaligining yuqori rentabelli, ekologik toza tarmog‘iga aylantirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tadqiqotlar olib borilgan xo‘jalikdagi o‘rganilgan qorako‘l avlodlarining ma‘lumotlari keltirildi.

Tadqiqot maqsadi. Surxondaryo viloyati “Bobotog‘ suri qorako‘lchilik” MChJ da Afg‘onistondan keltirilgan ko‘k qorako‘l qo‘chqorlar bilan ushbu xo‘jalikdagi qorako‘l qo‘ylarini geterogen hamda sur qo‘chqorlar bilan ushbu xo‘jalikdagi sur qorako‘l qo‘ylarini ♂sur X ♀sur juftlash natijasida olingan avlodlarni biologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot manzili, manba va usullari. Tadqiqotlar Surxondaryo viloyati, Qumqo‘rg‘on tumanining “Bobotog‘ suri qorako‘lchilik” MChJ sharoitidagi mavjud janubiy O‘zbekiston zavod tipi qorako‘l qo‘ylarida bajarildi. Tajribada rang bo‘yicha geterogen hamda gomogen juftlash natijasida olingan qo‘zilarni baholash “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka) qilish bo‘yicha qo‘llanma”, (Yusupov S.Yu., va boshqalar 2015) ma‘lumotlarga matematik ishlov berish variatsion statistika usullarida (N.A.Ploxinskiy, 1969) amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Bizga ma‘lumki qo‘ylarning nasliy, biologik va mahsuldorlik xususiyatlarni belgilashda ularning sinflilik darajasi muhim ahamiyatga ega. Olingan avlodlarning sinflilik darajasi ma‘lumotlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, seleksion jarayonida Afg‘oniston seleksiyasiga mansub ko‘k rangli qo‘chqorlardan foydalanishda olinadigan avlodlarda elita va I sinfli qo‘zilar salmog‘ini keskin oshirish imkonini beradi. Bu ko‘rsatkichni o‘rganish yo‘nalishidagi tadqiqotlarda (1-jadval) elita va I sinfli avlodlar salmog‘i getrogen juftlashda 30,6 va 47,1 % bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Ko'k rangli afg'on qorako'l qo'chqorlari va janubiy O'zbekiston qorako'l qo'ylarini juftlashdan olingan avlodlarning sinf ko'rsatkichlari

Juftlash	Baholangan avlodlar bosh	Avlodlar sinfi							
		Elita		I- sinf		II-sinf		yaroqsiz	
		n	%	n	%	n	%	n	%
Getrogen ♂ ko'k afg'on X ♀ qora janubiy O'zbekiston	Ko'k n=297	91	30,6	140	47,1	26	8,7	40	13,6



1-rasm. Tadqiqot xo'jaligidagi ko'k va sur rangli avlodlarning tashqi ko'rinishi

2-jadval

Surxondaryo zot tipidagi sur qo'chqorlar bilan sur qorako'l qo'ylarini juftlashdan olingan avlodlarning sinf ko'rsatkichlari

Juftlash	n	Avlodlar sinfi							
		Elita		I- sinf		II-sinf		Yaroqsiz	
		n	%	n	%	n	%	n	%
♂ sur X ♀ sur	Sur, n=321	106	33	105	32,7	47	14,6	63	19,7

Jadval ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, Surxondaryo zot tipidagi sur qo'chqorlar bilan sur qorako'l qo'ylarini juftlashdan olingan avlodlarning ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi. Elita va I sinfli avlodlar salmog'i 33 va 32,7 % bo'lganligi kuzatildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ko'k qorako'l qo'ylarining hozirgi kunda bosh sonini oshirish asosiy maqsad bo'lganligini inobatga olib o'rganishlar natijasida Afg'oniston seleksiyasiga mansub ko'k rangli qo'chqorlardan foydalanib janubiy O'zbekiston qorako'l sovliqlarini juftlash natijasida olingan avlodlarda 77,7% yaxshi natijaga erishildi hamda bundan tashqari xo'jalikda mavjud bo'lgan sur rangli qo'ylarning Surxondaryo zavod tipiga xos bo'lgan bir qancha rang barangliklar bo'yicha esa 65,7% yaxshi natijaga ega bo'ldi. Shunga asosan avlodlarining mahsuldorlik va biologik ko'rsatkichlari yaxshi natija berganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Aripov U.X., Abdizoirova D.Yu., Imomov X.N. Karakul sheep of gray color (shirozi), characteristics of karakul sheep and the problem of distribution of their assortement. Journal of Agriculture & Horticulture 2023 y. 48-51

2. Aripov U.X., Shaptakov E.S. va boshqalar “Qorako‘l qo‘ylarining genofondini saqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar”. Samarqand 2023.

3. Арипов У.Х. – Қоракўл қўйларининг яшовчанлиги ва маҳсулдорлигини оширишнинг илмий асослари. Докторлик диссертацияси, Самарқанд 1992 йил.

4. Гигинейшвили Н.С. Рангли қоракўлчиликда наслчилик иши. Москва, Колос нашриёти, 1976 йил.

5. Yusupov S.Yu., Gaziyeu A. va boshqalar. “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma”. Toshkent 2015, 22 bet.

6. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва 1969.

УЎК: 636.933.2: 082.11(252)

ҚИЗИЛҚУМ ШАРОИТИДА ҚОРА РАНГЛИ ҚОРАКЎЛ ҚЎЙЛАРИ ИРСИЯТИНИ ЎРГАНИШ НАТИЖАЛАРИ

А.Газиёв – қ.х.ф.д., катта илмий ходим

У.Т.Фазилов – б.ф.н.

Б.С.Маматов - қ.х.ф.ф.д. (PhD), катта илмий ходим,

Қоракўлчилик ва чўл экологияси илмий-тадқиқот институти

Аннотация. Мақолада Қизилқум шароитида қора рангли қоракўл қўйларининг ирсиятини ўрганиш бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари келтирилган.

Ключевые слова: қоракўл қўйлари, қўзилари, экологик шароит, гомоген ва гетероген жуфтлаш, селекция, урчителии, гул тили, гул узунлиги.

Annotation. The article highlights the results of studies on the heredity of black Karakul sheep in the conditions of Kyzylkum.

Key words: Karakul sheep, lambs, environmental conditions, homogeneous and heterogeneous selection, selection, breeding, curl type, curl length.

Кириш. Қоракўл қўйларининг ирсиятини мустаҳкамлаш ва унинг турғунлигини ошириш урчитиш шароити билан чамбарчас боғлиқ. Маълум бир селекцион белгининг маълум экологик шароитда намоён бўлиш даражаси турли экологик шароитда, яъни ташқи муҳит таъсирига кўрсатадиган муносабатига боғлиқ ҳолда ўзгаради. Таъсир кўрсатадиган генларнинг ташқи муҳитга турли реакцияси белгиларнинг намоён бўлиши бўйича маълум ва сезиларли даражалардаги модификацион ўзгарувчанликни келтириб чиқаради.

Бу борада сезиларли тадқиқотлар бажарилган (М.А. Кошевой, 1953, 1966, 1975; Т.Ў. Умурзаков, 1992, Ажиметов Н.Н., Паржанов Ж.А., Мустияр Т.А. 2019, С.Ю. Юсупов, Б. Маматов, 2020; У.Т. Фазилов, А. Газиёв, 2020)

Шу нуктаи назардан турли экологик шароитларда урчитиладиган қоракўл қўйларида белгилар намоён бўлишининг максимал ва минимал даражаларини аниқлаш долзарб ва зарур бўлган муаммо ҳисобланади.

Тадқиқот мақсади. Қизилқум шароитида қоракўл қўйларини урчитишда самарали усулларни қўллаш асосида уларнинг насл хусусиятларини яхшилаш тадқиқотларнинг мақсади ҳисобланади.

Тадқиқот манбаи ва усуллари. Тадқиқотлар Бухоро вилоятининг “Жонгелди” МЧЖда урчитилувчи қора рангли тоза зотли юқори синфларга мансуб қоракўл қўйларида олиб борилади.

Ишларни бажаришда зоотехникавий, статистик, корреляцион таҳлил, дисперсион таҳлил усулларидадан фойдаланилди.